

Dunyoda koronavirus tarqalishiga doir vaziyat qanday?

Jahondagi sanitar-epidemiologik vaziyat tashvishligicha qolmoqda. Jami kasallanganlar soni 20 mln nafardan oshdi, oldingidek AQSH, Braziliya va Hindiston kasallik o'chog'i bo'lgan mamlakatlar hisoblanadi.

Shimoliy Amerikada 6,1 mln. dan ortiq kasallik holatlari qayd etilgan (umumiy kasallanganlar sonining 30,5%). Osiyoda ushbu ko'rsatgich 5,1 mln.(25,1%), Janubiy Amerikada -4,75 mln. (23,4%), Yevropada - 3,04 mln. (15%)ni tashkil etadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari (Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston)da 213,7 ming nafar bemor qayd etilgan, ya'ni jami kasallik holatlarining 1,0 6% foizi ushbu davlatlarga to'g'ri keladi.

Statistika

"Worldometers" ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning 10-avgustida dunyo miqyosida kasallanganlar soni 20 mln. 23,5 ming kishini tashkil etadi, ularning 734 ming nafari vafot etgan.

Kasallik eng ko'p tarqalgan mamlakatlar: AQSH- 5 mln. 199,4 ming nafar, Braziliya - 3 mln. 35,5 ming nafar va Hindiston - 2 mln. 214,1 ming nafar.

Joriy yil 10-avgustda COVID-19 kasalligidan tuzalganlar soni 12 897 984 nafar kishiga yetdi. (+177 759) - jami bemorlarning 64,4 foizi.

MDH mamlakatlari

Rossiyada jami kasallanganlar soni 887 536 nafarga yetdi, 693 422 nafar bemor sog'aydi, 14 931 nafar bemor vafot etgan.

Belarusda kasallanganlar soni - 68 850, sog'ayganlar 64 935 nafarni tashkil etadi, 587 nafar kishi vafot etgan.

Markaziy Osiyodagi holat

Qozog'istonda jami kasallanganlar 98 701 nafar, sog'ayganlar 72 273 nafarga yetgan, 1 058 nafar bemor vafot etgan.

Qozog'istonda 1-avgustdan buyon 13 ming nafar bemorda COVID-19 belgisi bor zotiljam kasalligi qayd etilgan. "Liter.kz" ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi bir kecha kunduzda 1011 ta shunday holat qayd etilgan. Sog'liqni saqlash vaziri A.Soyning 2-avgustdagi bayonotiga qaramay, vazirlik koronavirus va zotiljam statistikasini to'la birlashtirish muddatini orqaga surmoqda. Ilgari buni 2020-yil 5-avgustda tayyor qilishga va'da berishgan bo'lsa, endilikda 2-3 haftadan so'ng deyishmoqda.

Qirg'izistonda jami kasallanganlar soni 39 919 nafar, sog'ayganlar - 31 822 nafarni tashkil etdi, 1 468 nafar bemor vafot etdi.

So'nggi bir kecha kunduzda tibbiyot xodimlari orasida 10 nafari koronavirusni yuqtirib olgan. Bu haqda respublika shtabi bugun ertalab xabar berdi. Ma'lumotlarga ko'ra, ularning 3 nafari Bishkekda, ikki nafari O'sh va Batken viloyatlaridagi tibbiyot xodimlaridir. Ayni damda statsionar shifoxonalardan olti nafar shifokorga javob berilgan. Bundan tashqari, yana 38 nafar tibbiyot xodimi uy sharoitida o'zini- o'zi yakkalashdan ozod etilgan. Shu vaqtgacha jami 2 ming 948 nafar tibbiyot xodimida koronavirus aniqlangan. Ularning 2 ming 141 nafari sog'aygan.

Tojikistonda - 39 ta yangi holat qayd etilgan, jami bemorlar soni - 7 745, sog'ayganlar 6 573 nafarni tashkil etadi, 62 nafar bemor vafot etgan.

Turkmanistonda birona ham koronavirus bilan kasallanish holatlari qayd etilmagan.

Ilgari xabar qilinganidek, 5-avgustdan boshlab Turkmaniston hududiga parvoz qilgan yo'lovchilardan COVID-19 kasalligi yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnomani majburiy taqdim etish talabi qo'yilgan edi. "Arzuwnews" ma'lumotlariga ko'ra, 10-avgustdan boshlab bunday ma'lumotnomaning amal qilish muddati ikki haftadan uch haftagachani tashkil etadi. Nashrning ma'lum qilishicha, bunday ma'lumotnoma fuqaroning yashash joyidagi oilaviy poliklinikadan olinishi mumkin. Talabalar Ashxaboddagi maxsus Talabalar sog'lomlashtirish markaziga murojaat qilishlari kerak. Ma'lumotnoma olish uchun umumiy qon tahlili topshirish va o'pka flyuorografiyasi kerak bo'ladi.

Dunyodagi so'nggi tendensiyalar

Rossiyalik olimlar Xitoyda tarqalgan yangi virusni COVID-19 bilan tenglashtirdilar. "RBK" nashrining xabar berishicha, Iqtisodiyot oliy maktabi sog'liqni saqlash instituti direktori L.Popovichning ma'lum qilishicha, Xitoyda tarqalgan yangi SFTS virusi havo orqali tarqalmasligi bois, u qadar xavfli emas. Xitoyda bundan tashqari, ko'plab boshqa viruslar ham mavjud. Dunyoda ikki mingdan ziyod viruslar qayd etilgan. Ularning aksariyati - inson hayoti uchun xavfli. Biroq insondan insonga yuqadigan viruslar ko'p emas.

Novosibirsk davlat tibbiyot universitetining davolash fakulteti ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti V.Mitroxin ham shu fikrga qo'shiladi. Uning fikricha, yangi SFTS virusi koronavirus va grippga nisbatan u qadar xavfli emas.

Sog'liqni saqlash bo'yicha yevrokomissar S.Kiriakides Germaniyaning "Handelsblatt" gazetasiga bergan intervyusida koronavirusga qarshi vaksina yaratish bilan bog'liq fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

Uning fikricha, Yevrokomissiya koronavirusga qarshi vaksina joriy yilning oxiri va keyingi yilning boshlarida paydo bo'ladi, deyish uchun asoslarga ega. Ayni damda, S.Kiriakidesning qayd etishicha, vaksina barcha muammolarni hal qilmaydi, biroq "asta-sekin normal hayotga qaytish"ga yordam beradi. Uning fikricha, koronavirus inqirozni yengib o'tishda vaqt omili muhim hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kiriakides shuningdek, yevroitifoq mamlakatlarida kasallar sonining ortayotganidan xavotirlanayotganini bildirdi va hamjamiyatga a'zo davlatlarni infeksiya tarqalishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha choralarni ko'rishlikka chaqirdi.

AQSH moliya vaziri Mnuchin yakshanba kuni "FoxNews" telekanalida federal hukumat shtatlar hokimiyatlariga pandemiya oqibatlarini yengishda bundan keyin ham mablag' berishga tayyor ekanini ma'lum qildi. Biroq talab etilgan 1 trln.dollarni juda ko'p deb hisobladi. Uning qayd etishicha, aksariyat gubernatorlar taqdim etilgan mablag'larning yarmini ham saqlashmagan. Ularda qo'llab-quvvatlash bo'yicha so'nggi taqdim etilgan paketdan hali 150 mlrd. dollar qolgan.

8-avgust kuni prezident D.Tramp mamlakat aholisi uchun pandemiyaning iqtisodiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan to'rtta farmonga imzo chekdi. Birinchi farmonda oylikdan olinadigan soliqni to'xtatish, ikkinchi farmonda ishsizlik bo'yicha to'lanadigan nafaqalar miqdorini oshirish ko'zda tutilgan.

COVID-19 ga qarshi vaksina va preparatlarni ishlab chiqish chora-tadbirlari, olimlarning tadqiqotlari.

Turkiya prezidentining ma'lum qilishicha, Turkiyada koronavirusga qarshi ishlab chiqarilgan vaksinalardan biri insonlarda sinovdan o'tkazish uchun ruxsatnoma olgan. Ikkita vaksina hayvonlarda muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan, deb xabar beradi "Anadolu".

Mamlakat rahbarining so'zlariga ko'ra, Turkiya ham AQSH va Xitoy singari koronavirusga qarshi o'z vaksinasini yaratayotgan uchta davlatlar sirasiga kiradi. Ilgari mamlakat sog'liqni saqlash vaziri F.Koja Turkiya vaksina yaratish borasida Rossiya va XXR bilan muloqot olib borayotgani haqida ma'lum qilgan edi.

Illinoys universiteti olimlari tibbiy niqoblarni qayta ishlatishning yangi usulini o'rgandi. Ular niqoblar elektr maishiy multivarkalarda 50 daqiqa davomida selsi bo'yicha 100 gradus qayta ishlov berilsa, to'rt turdagi viruslar, jumladan koronavirusni ham o'ldiradi.

Bu boradagi batafsil ma'lumotlar "Environmental Science and Technology Letters" jurnalida nashr etildi. Amerikalik olimlarning qayd etishicha, stirillashning bu usuli sanitar qayta ishlashning eng asosiy talabi: viruslardan tozalash, filtrlash va insonning nafas yo'llariga yetarli darajada havoning tushishi kabi mezonlarga javob beradi.

Bu usul uy sharoitida bemorlarga qarayotgan ijtimoiy xodimlar hamda kichik tibbiyot va sanatoriya muassasasi tibbiyot xodimlariga tavsiya qilinadi.

COVID-19 oqibatlarini kamaytirish va karantindan chiqish choralari

Germaniyada epidemiologik holat barqarorligini ta'minlash bo'yicha yangi choralar ko'rilmoqda. "Rheinische Post" nashrining ma'lum qilishicha, mamlakat ichki ishlar vazirligining kotibi G.Krings fuqarolarga koronavirus xavfi yuqori bo'lgan hududlarga rejalashtirilgan safarlardan oldin xabardor qilish majburiyatini kiritishni taklif qildi.

Buning uchun fuqaro o'zi yashab turgan joyidagi sog'liqni saqlash departamentiga xabar berishi kerak.

Ayni paytda osoyishta bo'lmagan hududlardan qaytgan fuqarolar uchun 2 ta usul ko'zda tutilgan. Birinchisi - ular ketishdan 48 soat oldin test topshirib, uning ingliz yoki nemis tillaridagi natijasini taqdim etishlari kerak. Bunda barcha xarajatlar fuqarolarning o'zi tomonidan qoplanadi. Ikkinchisi - ular Germaniyaga qaytganlaridan so'ng uch kun davomida oilaviy shifokor tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tishlari lozim bo'ladi.

Venesuela prezidenti N.Maduro "Venezolanade Televisión" telekanali orqali chiqish qilib, koronavirus tufayli joriy qilingan favqulodda holatni yana bir oyga cho'zilishini ma'lum qildi. U shuningdek, 10-avgustdan boshlab karantin choralari asta-sekin yumshatish boshlanishini ham e'lon qildi. Noqulay epidemiologik vaziyat hukm surgan hududlar, jumladan poytaxtda yumshatish choralari asta-sekin joriy qilinadi.

Rossiyaning bir necha oliy o'quv yurtlari 1-sentyabrdan boshlab xorijlik talabalar uchun masofaviy ta'limni tashkillashtirishni rejalashtirishmoqda. TASS axborot agentligining ma'lum qilishicha, har bir guruh butun semestr davomida masofadan turib ta'lim oladi. Xorijlik talabalar va karantin tufayli ayrim sabablarga ko'ra semestr boshida ta'lim dargohiga kela olmagan RF fuqarolari ham bu guruhga kiradi. Moskva fizika-texnika instituti, "LETI" Sankt-Peterburg davlat elektrotexnika universiteti, Qozon federal universiteti, Tomsk politexnika universiteti, Boltiq federal universiteti, Uzoq sharq federal universiteti, Novosibirsk davlat universiteti va Tyumen davlat universiteti shu tartibda o'qishni boshlashni rejalashtirishgan.